

**Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'linmasini (qo'shilmasini) tashkil
etish haqida**
SH A R T N O M A № 14

“17” июн 2022 yil

Toshkent shahri

Toshkent shahar FVB boshlig'i R.X.Xaydarov kelgusida "YOXTTEB" bilan nomlangan, "Ma'rifat markazi" binosidan foydalanish va binoga tutash xududga xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan direksiyasi rahbari A.A.Gafurov kelgusida "Xo'jalik idorasi" bilan nomlangan, quyidagilar bo'yicha shartnoma tuzdik.

I. Shartnoma predmeti.

1.1. "YOXTTEB", O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'linmasi tarkibiy tizimi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik idorasi" jabhalarida 2022 yilda Yong'in xavfsizligini ta'minlash ishlarini olib boradi.

1.2. Qo'riqlanayotgan jabhaning umumiy Yong'in xavfsizligi holatiga mas'ullik "Xo'jalik idorasiga" yuklatiladi.

1.3. "Xo'jalik idorasi" jabhalarida "YOXTTEB" 15 ta xarbiy xizmatchidan iborat bo'lib, ular Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkillashtirish xizmatini olib boradi.

1.4. "Xo'jalik idorasii" o'z jabhalardagi Yong'in xavfsizligi holatini yaxshilash bo'yicha, "YOXTTEB" ko'rsatmalarida belgilangan tadbirlarni bajarishga majbur.

1.5. "Xo'jalik idorasii" "YOXTTEB" bilan birgalikda, jabhalarda yong'indan xavfli va portlash xavfi bo'lgan hududlarda "Yong'in xavfsizligi choralar haqida" yo'riqnomalar ishlab chiqishi va unga amal qilishi kerak.

1.6. "YOXTTEB" tomonidan Yong'in xavfsizligi holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni bajarish "Xo'jalik idorasii"ga majburiy hisoblanadi.

1.7. YOXTTEB va jabhalarning o'zaro munosabatlari qismiga muvofiq, tomonlar O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan buyruq, buyruqnomalar, nizom, reja va yo'riqnomalarga amal qiladilar.

II. Shartnoma mablag'i va hisoblashish tartibi.

2.1 2022 yil 1 yanvardan 31 martga qadar 3 (uch) oylik xarajatlar qiymati **406 469 355** (To'rt yuz olti million to'rt yuz oltmishto'qqiz ming uch yuz ellik besh) so'mni, shartnomaning bir oylik qiymati **135 489 785** (Bir yuz o'ttiz besh million to'rt yuz sakson to'qqiz ming yetti yuz sakson besh) so'mni tashkil etadi. (QQS siz).

Harajatlar smetasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati Farmon, Farmoyishi va Qarorlari, ya'ni Respublika hududida belgilangan eng kam oylik ish xaqqi miqdoridan kelib chiqib, hamda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vaziri, Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan tariflar asosida tuzilgan.

2.2. "Xo'jalik idorasii" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgust kunidagi №241 sonli qaroriga asosan Yong'in xavfsizligi xizmati uchun 100 foiz oldindan to'lovni har oyning 10 sanasiga qadar to'lab beradi.

2.3. Yong'in xavfsizligi xizmati shaxsiy tarkibini moliyaviy ta'minotida o'zgarishlar bo'lsa, yuqorida ko'rsatilgan talablarga rioya etgan holda, "YOXTTEB" shaxsiy tarkibini ta'minlash qo'shimcha smetasini taqdim etish yo'li bilan qo'shimcha shartnoma mablag'ida o'zgarish kiritiladi.

2.4. Yongin xavfsizligi xizmati uchun to'lov, "Xo'jalik idorasii" tomonidan har oyning 15 kuniga qadar to'lov qog'ozlarini Davlat banklariga topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. "Xo'jalik idorasii" to'lovlarni o'z muddatida amalga oshirmsa, bunday holda "YOXTTEB" to'lov talabnomalarni taqdim etib, aksepsiz tartibda mablag'larni undirib olishni amalga oshiradi.